

TARIX DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Shamsiyeva Malika Najimovna,
Yunusobod tumani 247- maktab,
tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix faniga oid bir qancha metodlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Bu, metodlar maktabda ta'lim bilan birgalikda olib boriladi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: Tarix, metoi, metodlar turlari, namuna metodlari, *pedagogik texnologiya*, "Aks test" usuli, "Maktub" usuli, "Klassik juftliklar" usuli, "Rasmlar izohi" usuli.

Texnologiya so'zi (yunoncha) "texnos" – san`at, hunar, "logos" – fan, "pedagogo" esa boshqaruvchi, yetaklovchi (ta`lim-tarbiyaga) ma`noni anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologiya jarayon (ishlab chiqarish jarayoni, ta`lim-tarbiya jarayoni va h.k). Ishlab chiqarishda mehnat qurollari bilan mehnat ob`yektlariga ta`sir etish natijasida mahsulot ishlab chiqarishdir.

Ayrim pedagoglarning fikricha, pedagogik texnologiya bu- o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta`sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Uslub (metod) o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish boyicha tavsiyalar majmuidir. Pedagogik texnologiya esa o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta`limda yakuniy natijani kafolatlaydigan yig'indidir.

Pedagogik texnologiya insonga ta`lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Pedagogik texnologiyani doimiy bir xil holda (hatto ma'lum qisqa vaqt oralig'ida ham), ya'ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, pedagogik texnologiya bir qolipga sig'adigan, aniq bir o'zgarmas loyiha emas. Chunki, har bir auditoriya va har bir guruh uchun tinglovchilarning ma'lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq holda, kerak bo'lsa guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondoshuv va texnologiya talab etiladi. Masalan, pedagog bir mavzuni maktab bolalariga boshqa texnologiya asosida, oliy o'quv yurti talabalariga boshqa texnologiyada, ishlab chiqarishdagi muhandis-texnik xodimlarga boshqa va oliy o'quv yurti pedagoglariga boshqa pedagogik texnologiya asosida o'tishi talab etiladi. Shuningdek, oldindan ma'lum bir guruhda dars o'tishda, pedagogning oldindan loyihalashtirib kelgan dars o'tish

texnologiyasi, auditoriyaning tayyorgarligi, undagi savol-javoblar natijasida yuzaga keladigan vaziyatlar asosida o'zgarishi ham mumkin. Shundagina pedagog aniq ko'zlangan natija - ya'ni o'z bilimini tinglovchilar tafakkuriga yetkazib, ularda rivojlantiruvchi faol faoliyat uyg'ota oladi. Menimcha o'qitishdan maqsad, tinglovchiga oldindan aniq, bor narsani o'rgatish emas, balki o'qitishni o'rgatishdir. Chunki, biz bugun talabaga o'rgatayotgan texnik vositalar, ayniqsa axborot – kommunikatsiya tizim texnikalari tezda ma'naviy eskiradi, demak bitiruvchi o'zi mustaqil o'qib, yangi texnik vositalar bilan ishlash sirlarini bilishi, shunga o'zida amaliy ko'nikma hosil qilishi lozim.

Pedagogik texnologiyaning o'nlab ta'riflari mavjud. Masalan, V.P. Bospalko pedagogik texnologiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Pedagogik texnologiya -bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir".

Umuman olganda, pedagogik texnologiya - o'quvchini o'qitish, tarbiyalash, shaxsini rivojlantirish masalalari yechimiga qaratilgan va ma'lum ketma-ketlik asosida amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik usullar, uslublar majmuidir.

Tarix darslarini o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali metodlarini o'rganish, uni amalda sinab ko'rish, ulardan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlash va ishlab chiqish bugunning eng dolzarb vazifalardan biridir.

Tarix darslarida foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi usullar tavsiya etiladi.

"Aks test" usuli.

O'qituvchilarimiz test usulidan samarali foydalanishadi. Bunda testning savoli va to'rtta (A, B, S va D) javoblari berilgan ochiq testlardan hamda javoblari bo'lmagan yopiq testlardan foydalaniladi. "Aks test" usulida esa to'rtta javoblar berilib, savolni o'quvchining o'zi tuzishi kerak. Savol tuzish jarayonida o'quvchi erkin fikrlaydi, so'z boyligini namoyon etadi. Masalan,

.....

A) 1526-1530 yillar

B) 1530-1858 yillar

S) 1500-1530 yillar

D) 1526-1858 yillar

O'quvchi quyidagicha savol tuzishi mumkin:

Bobur Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solgan edi. Bu saltanat hukmronlik qilgan yillarni belgilang. (D javobi)

"Maktub" usuli

O'quvchilarga mavzu qahramonidan biriga ismini yashirgan holda maktub yozish topshirig'i beriladi. Masalan, 9-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligida "Andijon qo'zg'oloni" mavzusi berilgan. O'quvchi o'z fikrlarini bayon etib, majoziy ma'noda mavzu qahramonining biriga "maktub"ni quyidagicha yozishi mumkin: "Assalomu alaykum men maktub yo'llayotgan ajdodim. O'sha davrda xalq sizni "avliyo" deb

hisoblagan ekan. Siz fizikaviy holatlardan foydalanib, xalq orasida mo'jizalar ko'rsatgan ekansiz. Turkistonda bo'lib o'tgan milliy ozodlik harakatining biriga boshchilik qilib, mustamlakachilarga qarshi kurash olib bordingiz. Siz haqingizda boshqa adabiyotdan o'rta bo'yli, echki soqolli, kamgo'sht, oriqliq, bug'doy rang, qoshi tutashgan, tojik bashara, kam gap, klub turuvchi, ovozi mayin kishi deb o'qiganman. ...”

Dars davomida o'quvchilar maktub kimga yozilganini topadilar.


“Klassik juftliklar” usuli

Bu usulda o'quvchiga mavzu yoki bob yuzasidan tartibsiz ahvolda bir varaq qog'ozga yozilgan so'zlar beriladi, masalan, Shayboniyxon, Bobur, Shox Ismoil, Komron, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, arablar, ruslar, Dukchi Eshon, mo'g'ullar. O'quvchilar shu so'zlar orasida klassik juftlikni topib, tuzishlari va ana shu bog'liqlikni asoslab berishlari kerak. Bu individual tartibda va kichik guruhlarda ham o'tkazilishi mumkin.

O'quvchi juftliklarni quyidagicha topadi. Shayboniyxon - Shox Ismoil, Bobur - Komron, Muqanna - arablar, ruslar - Dukchi Eshon, mo'g'ullar - Jaloliddin Manguberdi va bu juftliklarda qanday bog'liqlik borligini fikrlab, asoslaydilar.

“Rasmlar izohi” usuli

Bu usuldan foydalanib o'qituvchi nafaqat mavzuning ma'lum bir qismini so'raydi, balki o'quvchining so'z boyligini oshishiga ham imkon yaratadi. E'tiboringizga sinf darsliklarida berilgan rasmlar keltirilgan.



Ossuriyaliklarning shaharni bosib olishi tasviri



Ossuriyalik kamanchi



Xettlar jang oldidan




Solomon (Sulaymon) – Isroil – Yahudiy podsholigining hukmdori



Ossuriya podsholigi



Finikiyaliklar



Abu Nasr Farobiy



Abu Ali ibn Sino



Abu Rayhon Beruniy



Mahmudxo'ja Behbudiy.



Abdulla Avloniy.



Munavvar qori
Abdurashidxonov.

Xulosa qili yshuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, dars mashg'ulotlarini olib borish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Ularni yanada o'qishga, izlanishga, erkin fikrlashga, so'z boyligini oshirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" – T. "Ma'naviyat", 2008
2. Karimov I.A Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi 5-jild Toshkent «O'zbekiston» 1997
3. O'zbekiston tarixi. T., «Universitet», 1997.
4. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., «Sharq», 2000;
5. Yuldoshev J., Usmonov S. "Pedagogik texnologiya asoslari" – T. "O'qituvchi", 2004
6. Yuldoshev J., Usmonov S. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish" – T. 2008
7. O'zbekiston xalqlari tarixi. 1—2 tom.. Akademik A.Asqarov tahriri ostida, 1992.
8. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. «Sharq» nashriyot matbaa kontserni Bosh tahririyati. Toshkent, 2000.